



## TARJIMASHUNOSLIKDA DOLZARB MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

*FDU, f. f. d (PhD), katta o'qituvchi*

*Ilmiy rahbar: Karimjonovna Shahloxon Ravshanjonovna*

*Farg'onan davlat universiteti, chet tillari fakulteti, filologiya va tillarni  
o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*Madaminova Durdona Abduxakim qizi*

**Annotatsiya.** Tarjimashunoslik – bu tillararo aloqa va madaniyatlararo almashinuvning muhim vositasi bo'lib, globallashuv sharoitida uning roli yanada ortib bormoqda. Bugungi kunda ilm-fan, texnologiya, adabiyot va boshqa sohalarda tarjima xizmatlari muhim rol o'ynaydi. Biroq bu jarayon qator muammolar bilan bog'liq bo'lib, ularning yechimi tarjimashunoslik rivojining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada zamonaviy tarjimashunoslikdagi dolzarb muammolar va ularning ehtimoliy yechimlari haqida so'z yuritiladi

**Kalit so'zlar.** Tarjima muammolari, til, tarjimon, grammatika, tajriba, tarjima usullari, lingvistik muammolar, adabiy tarjima, madaniy tafovutlar, frazeologizmlar.

Tarjima tarixiga e'tibor qaratadigan bo'Isak u juda qadim tarixga ega bo'lishiga qaramay Tarjimashunoslik faninig oltin davri deb XX asrni e'tirof qilsak bo'ladi. Ushbu asr nafaqat Tarjimashunoslik nazariyasi balki ilm -fan, texnologiya rivojining ham yuksak darajaga olib chiqdi desak mubolag'a bo'maydi. Aynan shu sohalarning rivoji, ishlab chiqarishning yuqori marralarga erishishi eksport va import salohiyatini yuqorilashi, diplomatik aloqalar mustahkamlanishi tarjimashunoslikning sinxron va ketma-ket turlarini yanada globallashuviga olib keldi. Har bir sohada bo'lgani kabi, tarjima sohasida ham bir nechta tarjima muammolari mavjud, ba'zilariga tarjimonlar, ba'zilariga esa mijozlar duch keladi. Boshqalari esa tizimli muammolar deb hisoblanishi mumkin, chunki ular tarjimaning o'zi uchun muammo tug'diradi. Quyida, men asosiy tarjima muammolari va ehtimoliy yechimlarni yoritaman.



## 1.Tilning tuzilishi

Turli tillarning grammatic tuzilishi farqlanadi, bu esa tarjima jarayonida katta muammolardan biriga aylanadi. Har bir til o‘ziga xos tuzilishga ega bo‘lib, bunda so‘z tartibi, grammatic qoidalar va madaniy xususiyatlar muhim rol o‘ynaydi. Ba’zi tillarda ma’lum atamalar mavjud bo‘lmasligi ham tarjima jarayonini qiyinlashtiradi. Masalan, ingliz tilida sifat odatda otning oldidan keladi, fransuz tilida esa aksincha – otning keyin joylashadi. Arab va boshqa ayrim tillarda esa to‘g‘ri olmosh fe’lning bir qismi bo‘lib, gapning jinsi va tovushini belgilaydi. Bu kabi murakkabliklar tarjima jarayonini yanada qiyinlashtiradi. Til doimiy rivojlanishda bo‘lgan tizim bo‘lib, tarjimon har bir tildagi grammatic tuzilmani yaxshi tushunishi va tarjima jarayonida matnning ma’nosini o‘zgartirmasdan yetkazishi lozim.

Yechim: Tajriba va amaliyat. Turli tillar bo‘yicha bilim va tajribani oshirish muhim. Tarjimani bajargandan so‘ng, uning grammatic jihatdan to‘g‘ri tuzilganligini tekshirish lozim. Asl matn mazmuni saqlanganiga ishonch hosil qilish tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir.

## 2. Madaniy tafovutlar va shevalarning tarjimaga ta’siri

Har bir tilda so‘zlashuvchilar o‘ziga xos madaniyat va shevalarga ega bo‘lib, bu tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko‘pincha og‘zaki nutq rasmiy uslubga o‘tkazilib tarjima qilinadi, bu esa tarjimon uchun qo‘srimcha qiyinchilik tug‘diradi. Tarjima qilinadigan til qanchalik keng tarqalgan bo‘lsa, undagi shevalar va lahjalar shunchalik ko‘p bo‘ladi. Shu sababli tarjimon tegishli kontekstga mos keladigan so‘z va iboralarni topishga alohida e’tibor qaratishi lozim. Masalan, inglizlar o‘ziga xos istehzoli hazil uslubi bilan mashhur bo‘lib, ular ko‘pincha beparvo ohangda labning bir chetini tishlash orqali kinoya bildiradilar. Biroq, bu turdagи hazil nafaqat boshqa tilda gaplashuvchi xalqlar, balki ingliz tilidan foydalanadigan turli mamlakatlar uchun ham tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Asosiy muammo shundaki, tarjima jarayonida matndagi hissiyotni yo‘qotmasdan va noqulay holatga tushib qolmasdan qanday qilib to‘g‘ri ifodalash kerak?

Yechim: Tadqiqot va chuqur o‘rganish. Sheva va so‘zlashuv tilidagi eng keng tarqalgan iboralarni o‘rganish uchun internet manbalaridan foydalanish foydali bo‘lishi



mumkin. Tarjima qilinayotgan tilning mashhur lahjalari bilan tanishib chiqish ham muhim. Bundan tashqari, o'sha tilga xos filmlar, seriallar, jurnallar va kitoblarni o'qish orqali mahalliy madaniyatni chuqurroq o'rganish lozim. Ayniqsa, vizual materiallar (filmlar va teleko'rsatuvlar) shevalarni tushunish va real hayotda qanday qo'llanilishini kuzatish uchun juda foydalidir.

### 3. Murakkab so'zlar va tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar

Murakkab so'zlar bir nechta sifat va fe'lning qo'shilishi natijasida yuzaga keladigan, tarjimon uchun muayyan murakkablik tug'diradigan iboralardir. Ba'zi qo'shma so'zlarni tarjima qilish oson bo'lsa, boshqalari aniq kontekst va chuqur bilim talab etadi. Masalan, notebook so'zi oddiygina "yozish mumkin bo'lgan kitob" deb tarjima qilinishi mumkin. Biroq, hyphenated kabi murakkab so'zlar esa to'g'ri va tushunarli tarjima qilish uchun maxsus mahoratni talab qiladi.

Yechim: Mutaxasislikka yo'naltirish. Har bir tarjimon o'zining asosiy yo'nalishini aniqlab olishi kerak. Barcha sohalarda yetuk bo'lishga intilish o'rniغا, bir yoki ikkita mavzuni chuqur o'rganib, ularda mutaxassis bo'lish maqsadga muvofiq. Tanlangan soha bo'yicha eng ko'p uchraydigan murakkab so'z va iboralarni o'rganish, ularning tarjimalarini tahlil qilish muhim. Ishni osonlashtirish uchun tarjima tarixi, maxsus lug'atlar va tegishli dasturlardan foydalanish foydali bo'ladi.

### 4. Ikki so'zli fe'llar va tarjimada uchraydigan qiyinchiliklar

Ingliz tilida fe'l va predlog kombinatsiyasidan tashkil topgan ko'plab ikki so'zli fe'llar mavjud. Masalan: break up, break down, break into, break in, break off, break apart, break away kabi iboralar bir xil asosiy fe'ldan tuzilgan bo'lsa-da, ularning ma'nosi turlicha bo'lishi mumkin. Bu fe'ldan keyin keladigan predlog butun iboraning ma'nosini keskin o'zgartirishi bilan bog'liq. Tarjima jarayonida bunday iboralarni so'zma-so'z tarjima qilish muammolarga olib kelishi mumkin, chunki natijada noto'g'ri yoki mantiqsiz ifoda yuzaga kelishi ehtimoli bor.

Yechim: So'zma so'z tarjimadan qochish. To'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish o'rniغا, ushbu iboraning ma'nosiga mos keladigan ekvivalent so'z yoki iborani topishga e'tibor qaratish lozim. Tarjima qilinayotgan tilga xos muqobil ifodalarni topish matnning tabiiy va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.



## 5. Bir necha ma'noli so'zlar

Ingliz tilida ayrim so'zlar kontekstga qarab turli ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. Ba'zi so'zlar bir xil yozilsa-da, gap tarkibida turlicha ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, break so'zi "a plate" (idishni sindirish) va "take a coffee break" (tanaffus qilish) iboralarida butunlay boshqacha ma'noda ishlatiladi. Shuningdek, yozilishi bir xil, lekin talaffuzi har xil bo'lgan so'zlar ham mavjud: to lead a conference (konferensiyanı boshqarish) va a lead pencil (qalam yadro materiali). Bunga qo'shimcha ravishda, talaffuzi bir xil, ammo imlosi farqli so'zlar ham bor: break va brake, grate va great kabi. Ingliz tilida bunday so'zlar juda ko'p bo'lib, idiomalar, metaforalar va boshqa til birliklari tarjima jarayonini yanada murakkablashtirishi mumkin. Biroq, bu kabi til xususiyatlari har bir tilda o'ziga xos shaklda bo'lishi mumkin.

Yechim: Matnni diqqat bilan o'qish. Tarjimon juda e'tiborli bo'lishi va manba matnni chuqur tushunib, kontekstni to'g'ri anglab yetishi kerak. Shundan keyingina tarjima jarayoniga kirishish tavsiya etiladi. Aks holda, noto'g'ri talqin qilish jiddiy xatolarga olib kelishi mumkin.

## 6. Texnik bilimlarning yetishmasligi

Tarjimonlar, avvalo, tilshunos hisoblanadi. Ular ayrim fanlar bo'yicha yaxshi bilimga ega bo'lishi mumkin, ammo har doim ham texnik sohalarning yetuk mutaxassis emas. Shuning uchun tarjimonlardan tibbiy, muhandislik yoki boshqa texnik sohalarda ekspertlik darajasida bilimga ega bo'lishi kutilmaydi. Ko'pincha tarjimonlar ma'lum yo'nalishlarga ixtisoslashib, turli mavzular bo'yicha tajribaga ega bo'lishadi. Biroq, ba'zi hollarda bu bilimlar murakkab texnik matnlarni tarjima qilish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Ayrim matnlar o'ziga xos texnik terminlar bilan to'la bo'lishi yoki murakkab jarayonlarni batafsil tushuntirishi mumkin. Bu esa tarjimon uchun qiyinchilik tug'diradi, chunki noto'g'ri talqin yoki noaniq tarjima jiddiy xatolarga sabab bo'lishi mumkin.

Yechim: Mutaxassislarning yordamini olish. Agar tarjima qilinayotgan matn juda texnik bo'lsa, uni to'g'ri tushunish va tarjima qilish uchun ko'proq vaqt talab qilinishi mumkin. Bunday hollarda mijoz bilan bog'lanib, qo'shimcha ma'lumot olish



yoki sohaga oid mutaxassis bilan maslahatlashish foydali bo‘ladi.Bundan tashqari, texnik sohalarda bilimlaringizni oshirib borish va so‘nggi o‘zgarishlardan xabardor bo‘lish uchun doimiy ravishda o‘z ustingizda ishlash muhimdir. Bu tarjima sifatini oshirishga va murakkab texnik matnlarni aniq va tushunarli tarjima qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, Tarjima jarayonida duch kelinadigan muammolar juda ko‘p bo‘lib, men bu yerda faqat ayrimlarigagina to‘xtalib o‘tdim. Aslida, tarjimonlar o‘z ish faoliyatida turli murakkabliklarga duch kelishi mumkin. Biroq, vaqt o‘tishi bilan bu muammolarga yechim topiladi va tarjimonlik ishlari yanada osonlashadi.Axir, hali tarjima qilinishi lozim bo‘lgan juda ko‘p manbalar bor. Tarjima sohasi doimo rivojlanib borayotganligi sababli, yangi texnologiyalar va usullar tarjimonlarning ishini yengillashtirishga xizmat qiladi.Umid qilamanki, yuqorida keltirilgan tarjima muammolari va ularning yechimlari tarjimonlik faoliyatini endigma boshlaganlar uchun ham, tajribali mutaxassislar uchun ham foydali va amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
2. Baker, M. (2011). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge
3. Macmillian dictionary
4. Vinay, J.-P., & Darbelnet, J. (1995). Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. John Benjamins Publishing.
5. Hatim, B., & Munday, J. (2004). Translation: An Advanced Resource Book. Routledge.
6. Bell, R. T. (1991). Translation and Translating: Theory and Practice. Longman.
7. [www.est-translationstudies.org](http://www.est-translationstudies.org)
8. [www.glosbe.com](http://www.glosbe.com)
9. House, J. (2015). Translation Quality Assessment: Past and Present.
10. Ilmiyaminova O.H

<https://advancedscienti.com/index.php/AJEL/article/view/1486>

